

## "ÓZBEK ADABIY TILI SHAKLLANISHIDA BOSHQA TIZIMDAGI TILLARNING ÓRNI VA TA'SIRI"

*Sattorova Nafisa*

*Termiz davlat universiteti Özbek filologiyasi fakulteti talabasi*

### Anotatsiya

Ushbu maqolada ózbek adabiy tilining shakllanishida órni va ta'siri bólgan tizimdagi tillarning tavsifi va bu borada dialektlarning tahlili yoritiladi, shu órinda arabiya va forsiy sózlarning turkiy tillarga ta'siri va ózlashgan qatlAMDAGI tillarning mavqeyi xususida gap boradi.

**Kalit sózlar:** adabiy til, dialekt, qadimgi turkiy til, hozirgi turkiy til, ózbek tili, forsiy sózlar, arabiya sózlar, ózbek yozuvi.

### Kirish

XIX asrda turli ijtimoiy ta'sirlar natijasida O'rta Osiyoda adabiy tilni shakllantirish to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokratik-ma'rifatparvarlar esa o'zbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar natijasi adabiy tilning turli stil va uslublari shakllandı, adabiy janrlarda qo'llanildi. O'zbek tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liqidir. O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarning birlashishi bilan bog'liq edi. Buni orasida katta farq bo'lgan o'zbek lahjasidagi dialektlarning ko'pligidan bilish mumkin. O'zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin: qadimgi turkiy, qadimgi o'zbek va zamona viy o'zbek tili davrlari. Qadimgi turkiy til. Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'y lab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo'lib, uning asosida keyinchalik ko'plab Osiyo tillari paydo bo'lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o'sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud. Qadimgi o'zbek tili ikkinchi bosqich XI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Shu vaqt ichida o'zbek tili ko'plab qo'shni tillar ta'sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo'shdi. Bu shaklda u 19-asrning oxirigacha o'zgarishsiz ishlatilgan. Hozirgi o'zbek tili

XX asrda zamona viy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'onan lajhasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lajhada gapirishgan va uning karnaylari sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o'zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o'tgan asrning 20-yillarda "sart" so'zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o'zbeklar deb

nomlana boshladi. Adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.O‘zbek yozuvini Butun rivojlanish tarixi davomida o‘zbek tilida uch xil yozuv mavjud edi. O’tgan asrning 20-yillari oxirigacha o‘beklarning etnik guruhi arab alifbosiga asoslangan edi. Sovet hokimiyati paydo bo‘lishi bilan yozuv bir qator islohotlarga duch keldi. So’ng 1938 yilgacha Lotin alifbosi ishlatalgan, keyin esa kiril alifbosiga o’tilgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlatga aylangandan so’ng 1993 yilda yana lotin alifbosi qaytarildi. Bugungi kunda o‘zbek yozuvida arab harflari, lotin va kirill harflari parallel ravishda qo‘llanilmoqda. Katta avlod kirill grafikasini afzal ko’radi, chet elda yashaydigan o‘zbeklar esa arab harflariga o’rganishgan. Maktablarda o‘qivchilar lotin tilida o‘qishadi, shuning uchun o‘quvchilar va o‘quvchilarga Sovet davrida nashr etilgan kitoblarni o‘qish juda qiyin.O‘zbek tili fors tilidan olingan so’zlarga boy. XX asrda lug’at rus tilidagi so’zlar bilan sezilarli darajada boyitildi va bugungi kunda u ingliz tilidagi so’zlar bilan jadal ravishda to’ldirilmoqda. Davlat dasturiga muvofiq, o‘zbek tilini boshqa tillardan olingan so’zlardan tozalash boshlangan. Bularning barchasi, shubhasiz, o‘zbek tilini va tarjimalarini o’rganishda ba’zi bir qiyinchiliklarga olib keladi, ammo uni o’ziga xos va yanada qiziqarli qiladi. Hozirgi kunda ochiq manbalardan olingan ma’lumotlarga ko’ra, O‘zbekistonda 24 millionga yaqin, Afg’onistonda – 3 million, Todjikistonda -taxminan 1 million, Qozog’istonda – 500.000, Turkmanistonda – 350.000ga yaqin, Rossiyada – 300.000 kishi o‘zbek tilida so’zlashar ekan.

### **Asosiy qism**

Har qanday Adabiy til xalq og’zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan Adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo‘lishi mumkin emas. Shu ma’noda Adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba’zan uni turli ko’rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma Adabiy til va og’zaki Adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan Adabiy tilni ayni bir deb bo’lmaydi. Adabiy til o’z mezonlarini egallagan shu tilda so’zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma, ham og’zaki shakllarda amalda qo’llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham Adabiy til me’yorlariga bo’ysunsada, ko’plab xususiylik hamda umume’tirof etmagan. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo’lsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkab-lashadi. Hozirgi kunda ko’pgina mamlakatlar (masalan Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar Adabiy til bilan teng suratda qo’llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog’lanadi. Ammo bu bog’ lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o’zi Adabiy til ko’rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilarni majmuidan iborat bo’ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Abdurauf Fitratning o‘zbek tilshunosligida muhim o’rin tutgan xizmatlaridan biri uning til taraqqiyoti haqidagi

qarashlaridir. Olim "Adabiyot qoidalari" nomli adabiyotshunoslikka bag'ishlangan asarida o'zbek tili lug'at boyligining taraqqiyoti masalasiga to'xtalib o'tib, shunday yozadi: "Uch yo'l bilan tilimizga yangi so'zlar kirdizishni talab etmasak, tilimizni boyishdan to'xtatgan bo'lamiz. Bular, yangidan yasaymiz (uchg'ich), yotlardan olarmiz (elektrik), unutilib ketgan eski so'zlarni yangidan kirdizarmiz (qurultoy)". Olimning nazarida, milliy tilni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri har bir tilning o'z ichkiimkoniyatlaridan kelib chiqib so'z yasashdir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shevadan so'z olish ham tilning ichki imkoniyati deb qaraladi. Abdurauf Fitratning bu masalaga munosabati qanday edi? Olim "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf, Nahv" nomli o'zbek tili darsligining so'z boshisida bu haqda to'xtalgan va o'zbek shevalariga o'z munosabatini quyidagicha bildirgan edi: "Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan beri arab, forsiy adabiyotning hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'onadir. Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz" Olima Muhabbat Qurbanova Abdurauf Fitratning o'zbek tili sofligi uchun kurashchi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho berib, quyidagilarni yozadi: "...Bu borada u (Fitrat) o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Fitratning tilimiz haqidagi orzu-armonlari hazrat Navoiyning fikrlari bilan hamohang..." Ózbek tilidagi dialektologik tahlil natijasida ózbek tilshunoslari korpus va shevalar róyxatini tuzishmoqda shu jumladan "Boysun dialektal korpusi" lug'atini bir qishloq shevasida tuzib taqdim etgan ustozimiz Termiz davlat universiteti óqituvchisi Muyassar Xolova ustozimizning ishlari bunga yaqqol misol bola oladi. Ózbek tiliga dialektdan tashqari adabiy til sifatida shakllanishida ózlashma sózlarning roli ham ancha beqiyos shu jumladan forsiy sózlarning roli, O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida eroniyl til xarakteriga ega bo'lgan qadimiy xorazm tili ham mavjud edi. Bu til bilan o'sha davr mahalliy turkiy tillar orasida ma'lum aloqa bo'lgan. Tarixiy manbalarda VII-VIII asrlarda va undan oldin xorazm yozuvi keng tarqalganligini ko'rsatuvchi dalillar mavjud. XIII-XIV asrlarda Xorazm aholisi ikki tilda - turkiy va qadimiy xorazm tilida gaplashgani ma'lum. Qadimgi xorazm tili XIV asrlarga kelib o'zbek tiliga singishib ketdi. Natijada bu tilga oid ba'zi so'zlar hozirgi o'zbek tilida saqlanib qolgan: xo'p (xo'b), bog', pochcha (pichchomi-dadam), osmon (osm), juft (er), ariq (ar-suv) va boshqalar. Fors-tojikcha sozlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, gisht, dasht, xonodon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi. Arab tilidan ozlashgan sozlar. Arabcha sozlar ozbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyon bosib olishi bilan bogliq. Kitob, mifik, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, kasb, qassob, san'at, asbob, bino, imorat, ovqat, galla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimog`, idora kabi. Arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlar semantik zidlashuv (autoavtonomiya) hodisasiga uchragan. Bunday so'zlarning arab tilidagi ma'nosi ijobiy, o'zbek tilidagi ma'nosi salbiy

yoki aksincha holda bo'lishi mumkin. Ko'pincha o'zlashma so'zlar o'zlashtiruvchi tilga o'tish jarayonida o'zlarining ma'nolarini o'zgartirib kirib keladilar, ularning aktiv tildagi ma'nolari bilan passiv tildagi ma'nolar o'rtasida farq bo'lishi mumkin. M: -savod» so'zi arab tilida AjmÍ asvod(qora) so'zi kabi bir o'zakdan yasalgan va u "qoramtir,qora dog',ko'p,olamon,qora kiyim" ma'nolarini angatsa, o'zbek tilida yuqorida keltirilgan ma'nolarning birortasiga ham yaqinlashmaydigan, ya'ni unga zid bo'lgan "savod" ma'nosida ishlatiladi."Valad" so'zi so'z beruvchi tilda: 1.Bola, go'dak, farzand; 2.O'g'il, o'g'il bola; 3.Karta, valet ma'nolarida kelsa, o'zbek tilida esa shariyat yo'li bilan nikohlanmagan ota-onadan tug 'ilgan bola, haromi ma'nolarini anglatadi.Assalomu aleykum sózini oladigan bolsak bu ham arabchadan kelib chiqqan lekin uni talaffuzda bitta harfini tushirib qóyadigan bolsak ma'no zidlashadi ya'ni اسلامالیکم sózi sizga sog'lik tilayman ma'nosida bólsa مسیح deb aytganimizda bu sóz sizga ólim tilayman ma'nosini bilan teng holatda tavsif etiladi.O'zbek tiliga -sui» prefaksi yordamida hosil bo'lgan so'zlar ham o'zlashgan. Arab tilida mazkur so'z:1.Yomonlik, xafalik, xafa qilish; 2. Baxtsizlik, ofat, falokat ma'nolarini anglatadi.Binobarin ikki arabcha semadan hosil bo'lgan Suiiste'mol so'zi hozir - o'z manfaati uchun yo'l qo'yilganidan ortiqcha foydalanish ma'nosini anglatadi.Misol: -Siz o'z mansabingizni suiiste'mol qilib 6 gektar erdag'i g'o'zaga traktor solib yuboribsiz. (I.Rahim «Ixlos»)

### Xulosa

O'zlashma so'zlarning o'zbek tili qonuniyatlariga singib ketishi natijasida, ularning ishtirokida juft otlar ham hosil qilingan, albatta bu juft otlar hosil bo'lish jarayonida o'zbek tili grammatik qonun-qoidalariga bo'ysungan holda yasalgan. O'zbek tilining izohli lug'atida bunday so'zlar juda ko'p. Arabcha:o'zbekcha, forscha juft so'zlar esa, yuqoridagi an'anaga ko'ra, keyinroq paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Qanday bo'lsa-da, o'zbek tiliga o'zlashgan yakka so'zmi yoki juft so'zlarimi, ular o'zbek tili leksik xazinasini boyishiga ijobjiy ta'sir etgan, chunki, hozir aytib o'tilgan so'zlarsiz o'zbek tilini tasavvur qilib bo'lmaydi.Shunday qilib, biz o'zbek tili leksikasining ancha qismini tashkil etgan arabizm - arab tilidan o'zlashgan so'zlarning kirib kelish jarayoni, uning o'zlashishi, singishi, ma'nolarining arab tilida qanday bo'lsa shunday ma'noda qo'llanilayotganligi yoki birlamchi ma'nosini yo'qotib, boshqa ma'noda, ba'zan, asliga zid ma'no anglatadigan shakllari haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Zero, arab tili mutaxassis bo'la turib, o'zining ona tilidagi o'zlashgan arab so'zlarining kirib kelish tarixini bilmaslik haqiqiy arab tili mutaxassisiga to'g'ri kelmaydi.Shuni aytish joizki tilimiz shakllanishida nafaqat dialektlarning balki boshqa tillardan ózlashgan sózlarning roli beqiyosdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izoxli lug'ati. -Toshkent: 1995. 288 b.
2. Usanova S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojik-forscha va arabcha so'zlar. -T.: 1968.

3. Eshonqulov B.X. Hozirgi o'zbek adabiy tilida arabiylug'aviy o'zlashmalarning paradigmik assimilyasiya munosabati. Avtoreferat. -T.: 1996. S. 21.;
4. M.Xolova "boysun dialektlar korpusi"2021
5. ziyo.uz portali

